

5-10-2019

FEATURES OF MODERNIZATION AND INTEGRATION OF NATIONAL CULTURE

Nodira Farxodjonova

Independent researcher National University of Uzbekistan

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Farxodjonova, Nodira (2019) "FEATURES OF MODERNIZATION AND INTEGRATION OF NATIONAL CULTURE," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 104.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/104>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

FEATURES OF MODERNIZATION AND INTEGRATION OF NATIONAL CULTURE

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

MILLIY MADANIYAT MODERNIZATSIYASI VA INTEGRATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi, mustaqil tadqiqotchi
O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy madaniyat tushunchasi va uning tarixiy shakllanish bosqichlari, milliy madaniyatni shakllanish omillari, modernizatsiya va integratsiya jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlar, hozirgi sharoitda milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, milliy madaniyat, qadriyat, ma'naviy meros, din, ma'rifat, ma'naviyat, buyuk mutafakkirlar, mustaqillik.

ОСОБЕННОСТИ МОДЕРНИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Фаходжонова Нодира Фарходжон кизи, самостоятельный соискатель
Национальный университет Узбекистана

Аннотация: В статье рассматриваются понятие национальной культуры и ее исторические этапы, факторы формирования национальной культуры, особенности процесса модернизации и интеграции, концепция развития национальной культуры в современных условиях.

Ключевые слова: культура, национальная культура, ценности, духовное наследие, религия, просвещение, духовность, великие мыслители, независимость.

FEATURES OF MODERNIZATION AND INTEGRATION OF NATIONAL CULTURE

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi, independent researcher
National University of Uzbekistan

Abstract: This article covers the concept of national culture and its historical stages, factors of the formation of national culture, peculiarities of the process of modernization and integration, the concept of national culture development in modern conditions.

Key words: culture, national culture, values, spiritual heritage, religion, enlightenment, spirituality, great thinkers, independence.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston o'zining buyuk ma'naviy merosiga, milliy madaniyatiga ega qudratli davlatlardan biri hisoblanadi. Buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosimiz jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti bu borada shunday fikr bildirgan edi: "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne

sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va boyitish"[1]. Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy madaniyatni o'rganish, modernizatsiya va integratsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ma'ruzasida "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir[2]" - deb ta'kidladi.

Milliy madaniyat deganda, shu xalq yaratgan va o'zlashtirgan moddiy hamda ma'naviy qadriyatlarning butun majmui tushuniladi[3]. Shuningdek, milliy madaniyat – bu har bir millatga xos bo'lgan dunyoni anglash, uni aks ettirish, muayyan bir millatga tegishli bo'lgan an'analar, odatlar, ideallar va qadriyatlarni badiiy va amaliy nuqtai nazardan ifodalashning o'ziga xos shaklidir.

Milliy madaniyatning mazmuni har bir millat madaniyatining ichki mohiyati va bazasi bilan bog'liqdir [4].

Aytish joizki, milliy madaniyatimiz asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib rivojlanib sayqallandi. Milliy madaniyatimiz tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Uzoq asrlar davomida qaramlikda, kam yillardagina ozodlikda yashagan xalqimiz ma'naviy hayotining gullab-yashnashi va madaniyatning butunlay pasayishi davrlarini boshdan kechirdilar.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining tarixiy shakllanish bosqichlarini belgilashda uning bir necha belgilarini ta'kidlash lozim: Markaziy Osiyo qadimgi davrlardan boshlab o'ziga xos geosiyosiy pozitsiyani egallagan: ikki daryo o'rtasida suv yo'lining mavjudligi, qishloq xo'jaligi va chorvachilikni rivojlantirish qulay bo'lgan geografik hududlar (tog', tog' oldi, cho'l hududlari) unumdor yerlar va iqlimning yaxshiligi [5].

Markaziy Osiyo atrofida rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan xalqlar va davlatlar ko'p bo'lmagan, ammo uning harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy manfaatlari Markaziy Osiyo xalqi bilan bog'langan bo'lib, u hech qachon alohida rivojlanmagan, boshqa madaniyatlar ta'siri sezilib turadi. Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlarda ham G'arb va Sharq mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng ko'lami, etnik va diniy mazmundagi cheklanmagan Vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir.

Milliy madaniyat ostida asosiy ma'naviy qadriyatlar va xususiyatlar tushunchasi muayyan mamlakat xalqlarini tavsiflovchi xatti-harakatlar, shuningdek guruh qadriyatlari, odamlarning e'tiqodlarini shakllantiradigan urf-odatlar, xatti-harakatlar normalarini o'z ichiga oladi. Milliy g'oyalar - muayyan yaxlitlik, o'lchov, normalar bilan uzviy bog'liq. Milliy xususiyatlarni tanlash til, madaniyat, kundalik xatti-harakatlardagi o'ziga xos elementlarning tajribasi bilan bog'lanadi. Tabiiyki, bir milliy madaniyatda yaratilgan g'oyalar yordamida boshqa xalqlar g'oyalarini yaratish mumkin emas.

Sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida qadim zamonlardan buyon yashayotgan xalqlarning dunyoqarashi va e'tiqodida suv va yerlar tasniflangan. Bunga ota-bobolarimiz ham amal qilgan. Zardushtiyaliklar yerni muqaddas deb hisoblashgan va uni bulg'amaslik uchun o'liklar dafn qilinmagan, balki ochiq joylarda, tepaliklarda maxsus belgilangan joylarda qoldirilgan.

Shunday qilib, tabiiy-tarixiy sharoitlarda shakllangan mahalliy dinlar va falsafiy qarashlar madaniy faoliyatning xususiyatlarini va ehtiyojlarini aks ettirgan. Islom dini kirib kelishi bilan yagona Xudoga bo'lgan e'tiqodni e'tirof etgan, suv va yerga bo'lgan ilohiy munosabatlarini bekor qildi, lekin sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan odamlar orasida bularga munosabat hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

Bu yerda qadimgi davrda qullik rivojlanmagan va O'rta asrlarda kichik va kommunal mulk shakllari hukmronlik qilgan. Uzoq o'tmishdan boshlab qabila jamoalari o'rtasida yaylovlar, cho'llar, lalmikor yerlar mavjud bo'lgan. Yerni sug'orish esa jamoat-chilik asosida irrigatsiya inshootlarini qurish va unga xizmat ko'rsatishni talab qildi. Shu bilan birga, ushbu mintaqada erkin savdo va tovar almashinuviga asoslangan tovar-pul munosabatlari jadal rivojlandi. Xususiy mulkning jadal rivojlanmaganligi an'anaviylikni kuchaytirdi. Bir tomondan, bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qildi, boshqa tomondan, madaniyat nuqtai nazaridan bu omil o'zaro yordam, teng huquqlilik, odamlar orasidagi o'zaro hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirdi. Biroq, shaxsiy tashabbusni bostirish, umumiy o'rtacha talablarning ustunligi, tanganing boshqa tomoni edi, buning natijasida radikal yangilash, tashabbus va ijodkorlik istagi yo'q edi.

Milliy madaniyat integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, - barcha yangi ko'chmanchi qabilalar va xalqlar Turkiston hududiga doimo kelib turgan. Ular mahalliy aholi bilan aralashib, madaniyati va tajribasini o'zlashtirib, madaniyatini boyitdi, xalqlar orasida diniy va etnik bag'rikenglik kabi qadriyatlar rivojlandi. VIII asrda Islom dini Markaziy Osiyoda hukmronlik qiladigan mafkuraga aylandi. Bu esa, jamiyatda adolat, axloq va falsafiy yondashuvni rivojlanishiga yordam berdi. An'anaviy prinsiplar asosida qurilgan va keyinchalik islomiy asoslarini rivojlantirgan xalqlarning madaniyati tarixiy haqiqatdir.

Islom dinining shakllanishi va rivojlanishi dastlabki asrlarida avvalgi tarixiy davrlarga nisbatan ilg'or g'oyalar ilgari surildi. IX-XII asrlarda va undan keyin Temuriylar davrida islom sivilizatsiyasi katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U samarali intellektual faoliyatga daxldor edi. Ulug'bek madrasasining eshik tabaqalariga arab tilida: "Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir"[6], degan hadis o'yib yozilgan. Islom insoniyatning ongida halollik, rostgo'ylik, xayr-ehson, o'zaro hurmat, bolalar va qariyalarga g'amxo'rlik, axloqiy poklik va mukammallik tushunchalari kabi qadriyatlarni shakllantirdi.

Qaysi davrga mansub bo'lmasin har bir millatning, har bir yurtning faxri va iftixori uning olimlari-yu, jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi va qadrlanadi. O'sha davr mutafakkirlarining ilm o'rganishga bo'lgan munosabati tufayli qadimiy hind va qadimiy yunon fani va falsafasi o'zlashtirilib, natijada o'sha davrdagi insoniyatning asosiy ilmiy yutuqlari o'rganildi. Markaziy Osiyo olimlarining ilmiy tadqiqotlari buyuk ma'naviy meros qoldirib, zamonaviy fanlarning

rivojlanishiga sababchi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. IX-XII asrlarda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Farobiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlarning ma'naviy merosi dunyoga keng tarqaldi. Ayni paytda Markaziy Osiyodagi eng katta ilohiyotshunoslarning ta'limoti rivojlanib bordi, bu esa insonning ma'naviy rivojlanishida katta rol o'ynagan. Zamaxshariy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro ta'limotida insonning ma'naviy-madaniy kamoloti asoslarini ko'rish mumkin. Uyg'onishi davri deb atalgan ushbu davrda bobokalonlarimiz judayam katta yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Bu ayni paytda musulmonlar dunyosiga, Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishiga va dastlabki islomga xos bo'lgan dinamizmga bog'liq bo'lgan madaniyatlarning o'zaro boyib borishiga, milliy madaniyat modernizatsiya va integratsiya jarayonini davom ettirishi bilan davom etmoqda.

Milliy madaniyatimiz boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lganligi bizning madaniyatimiz va taraqqiyotimizning xususiyatlarini belgilaydigan eng muhim omil bo'ldi.

Temuriylar davrida ilmiy va badiiy faoliyat oliy darajaga yetdi. Bu Ulug'bekning asarlari va uning atrofida, jumladan, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa olimlarni birlashtirib, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Bobur va boshqalar kabi daholar paydo bo'lishi bilan bog'liq [7].

Garchi yurtimiz bir necha yil davomida qaramlikda yashagan bo'lsada, xalqimiz milliy madaniyatimizni asrlar davomida ma'naviy qadriyatlarini saqlab, rivojlantirib kelishgan. Avloddan-avlodga axloqiy va diniy qadriyatlar chuqur singdirildi.

Milliy madaniyatni shakllantirishning yana bir muhim bosqichi XIX-asrning oxirida Markaziy Osiyoning ijtimoiy va siyosiy hayotida –Jadidchilik (arabcha "Jadid" dan yangi) harakati paydo bo'ldi. Bu harakat mahalliy taraqqiy etgan ziyolilar tomonidan tasvirlangan. Jadidlar yangi maktablarni yaratishga kirishdi. Yangi maktablarni tayyorlash dasturi tarix, arifmetika, geografiya va ona tilini o'z ichiga olgan. XX asrning boshlarida Jadidlar turli gazeta va jurnallarni chop etishga kirishdilar. O'z adabiyotlari orqali ular o'quvchilarni dunyodagi voqealar bilan tanishtirishdi, yangi metodik maktablar tarmog'i-ni kengaytirish, savdo, bank, sanoat, qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'z fikrlarini o'rtoqlashdi.

M. Behbudiy, A. Avloniy, M. Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon va boshqalar o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash va ma'naviy-madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xalqi, ozodlik, ijtimoiy adolat va milliy shaxsni tiklash yo'lida o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan ma'naviy-madaniy poydevorga asoslanib yo'l tutdi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridayoq milliy – ma'naviy merosimiz qayta tiklandi. Ushbu poydevor asosida mustaqillikning ma'naviy salohiyati mustahkam-lanmoqda va umid qilamizki, mamlakatimiz farovonligini va xalq farovonligini qo'llab-quvvatlaydigan ma'naviyat va madaniyatning yangi bosqichi kutilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash tashabbusi bilan chiqdi.

Tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Aytish lozimki, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi 9 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan.

1. Moddiy, nomoddiy madaniy meros, muzeylar;
2. Teatr, kino va sirk;
3. Milliy musiqa san'ati;
4. Milliy estrada san'ati;
5. Milliy raqs san'ati;
6. Tasviriy va amaliy san'at;
7. Madaniyat va istirohat bog'lari hamda madaniyat markazlari;
8. Ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish;
9. Madaniyat turizmi[8].

Fuqarolik jamiyati sharoitida o'tkazilayotgan falsafiy-ilmiy tadqiqotlarda milliy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini masalasi keng muhokama qilinmoqda. Insoniyat o'zini globallashtirayotgan, madaniyatlar uyg'unlashayotgan sharoitda yashayotganligini idrok etmoqda. Ammo globallashtirish, modernizatsiya va integratsiya jarayoni milliy madaniyatni inkor etmaydi, balki ularni yanada rivojlantiradi, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Globallashuv jarayonlarining milliy madaniyatlarga ta'sirini aniqlash qiyin, u ko'p tomonlama xususiyatga ega. Globallashuvning xalqaro tabiati, bir tomondan, milliy sohani toraytiradi, boshqa tomondan, uni madaniy, xorijiy va standartlashtirilgan tarzda to'ldiradi va shu bilan uning doirasini kengaytiradi. Biroq, bu jarayon faqat globallashuv sifatida belgilanishi mumkin emas, bu milliy madaniyatlarning rivojlanishining umumiy tendensiyasidir, bu esa bir tomondan tolerantlikni vujudga keltirsa, boshqa tomondan universal qadriyatlarni idrok etishga olib keladi.

Jahon madaniyati modernizatsiya va integratsiya yo'lidan ketayotgan ekan, ushbu jarayonlarni pozitiv tomonlarini milliy madaniyat rivojiga tadbqiq qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy madaniyat – xalqlarning milliy o'zligi, an'analari va qadriyatlarini aks ettiruvchi yaxlit bir tizim hisoblanadi.

References:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008. –B.78.
2. O'zbekiston Res'ublikasi 'rezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Res'ublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent shahri, 2017- yil 23- iyun. "Ma'rifat" gazetasi - 2017, №50
3. Golovnev A.I., Melg'nikov A.'. Sbljenie natsionalg'nqx kulg'tur v 'rotsesse kommunisticheskogo stroitelg'stva. – Minsk, 1979. –S.176.

4. Otamurodov S., Otamurodov S. O'zbekistonda mahnaviy-ruhiy tiklanish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2003. –B.264.
5. Abdullaeva S. A. Istoricheskie korni duxovnosti uzbekskogo naroda // Molodoy ucheny. — 2017. — №7. — S. 567-569.
6. [htt's://meros.uz/object/mirzo-ulugbek-madrasasi](http://meros.uz/object/mirzo-ulugbek-madrasasi)
7. Muminov I. Vqdayu'iesya mqsiliteli Sredney Azii. T., 1966.
8. [htt's://korres'ondent.uz/19731/](http://korres'ondent.uz/19731/)